

"O'zkimyosanoat" AJ va KOICA yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda

// 27.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-koica-yosh-olimlarni-qo-lab-quvvatlash>



Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda "O'zkimyosanoat" AJ hamkorligida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda kimyo texnologiyalari markazi (UzCCT) salohiyatini oshirish" loyihasi doirasida yana bir muhim qadam tashlandi.

26-avgust kuni Koreyada doktorantura bosqichini davom ettiruvchi 3 nafar stipendiatlar bilan shartnomalar imzolandi. Endi ular Koreyaning Universitet of Science and Technology (UST) oliygohida doktorantura bosqichida o'qishni davom ettiradilar.

Dastur yakunida tadqiqotchilar yangi tashkil etilayotgan UzCCTda faoliyatini davom ettirib, o'z bilim va ko'nikmalarini mamlakatimiz kimyo sanoatida innovatsiyalar va barqaror o'sishni rivojlantirishga yo'naltiradilar.

2021-2027-yillarga mo'ljallangan "O'zbekistonda kimyo texnologiyalari markazi (UzCCT) salohiyatini oshirish" yurtimiz kimyo sanoati raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy ilmiy infratuzilmani yaratish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Loyiha boshlanganidan buyon 11 nafar

magistratura bosqichi talabasi, 10 nafar PhD talabasi dastur ishtirokchisi sifatida tanlab olindi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati